

SALOM CARD DEBIT KARTASINING SODIQLIK DASTURI SHARTLARI

Toshkent sh.

«17» fevral 2026 yil

Quyida keltirilgan sodiqlik dasturining shartlari matni Bankning jismoniy shaxslarga ushbu Dasturda jismoniy shaxsning ishtirok etishi to'g'risida shartnoma tuzish uchun O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq rasmiy ommaviy oferta (keyingi o'rinlarda Oferta/Dastur deb yuritiladi) hisoblanadi. Shartnoma tuzilgan hisoblanadi va jismoniy shaxs ushbu Ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan vaqtdan boshlab kuchga kiradi hamda qo'shilish shartlari bo'yicha hech qanday istisno yoki cheklovlersiz ushbu Ofertaning barcha shartlarini jismoniy shaxs tomonidan so'zsiz qabul qilishini anglatadi.

1. TA'RIF VA ATAMALAR

- 1.1. **Bank** – "TBC Bank" ATB. 17.03.2022 yilda berilgan bank faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi 86-sonli litsenziya; STIR: 207318613; Manzil: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahar, Fidokor ko'chasi, 10B uy.
- 1.2. **Bonus (shu jumladan keshbek)** – Bank tomonidan Dastur ishtirokchisiga kartadan foydalangan holda muvaffaqiyatli tranzaksiyalarni amalga oshirish uchun hisoblangan shartli birlik. Bonuslar pul ekvivalentiga almashtiriladi (1 ta Bonus = 1 so'm) va Karta hisobiga to'lanadi.
- 1.3. **Mukofot** – raqamli mahsulot, tovar, xizmat, foyda yoki preferentsiya ko'rinishidagi moddiy yoki nomoddiy predmet.
- 1.4. **Karta** – ushbu Dastur amal qiladigan Bank tomonidan chiqarilgan milliy valyutadagi Salom Card debet kartasi.
- 1.5. **Hamkor** – Kartadan foydalangan holda tovarlar va xizmatlarni xarid qilish uchun turli imtiyozlar, preferensiyalar va Bonuslarni taqdim etuvchi jismoniy yoki yuridik shaxs. Imtiyozlar, preferensiyalar va Bonuslar ro'yxati va ularning miqdorlari ushbu Qoidalarining 1-ilovasida – Bonuslar va mukofotlarni olish shartlarida ko'rsatilgan.

2. DASTURNING UMUMIY QOIDALARI

- 2.1. Ushbu qoidalar Bank Mijozlarining sodiqlik dasturida ishtirok etish shartlari va tartibini belgilaydi.
- 2.2. Ushbu Dastur lotereya yoki boshqa xavfga asoslangan o'yin emas, bunda Dastur ishtirokchilari Dasturda ishtirok etish bilan bog'liq mulkiy xavflarni o'z zimmlariga oladilar. Dasturni o'tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan har qanday to'lovlarni to'lash bilan bog'liq emas.
- 2.3. Dasturning amal qilish muddati: cheksiz muddatga, Oferta kuchga kirgan kundan boshlab.

- 2.4. Dastur o'tkaziladigan joy: O'zbekiston Respublikasi.
- 2.5. Dastur Karta yordamida amalga oshirilgan tranzaksiyalar uchun amal qiladi. Karta Bankning bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etishning Bosh Shartlariga va Karta Tariflariga muvofiq chiqariladi va unga xizmat ko'rsatiladi. ([batafsil - tbcbank.uz/documents](https://tbcbank.uz/documents)).
- 2.6. Jismoniy shaxsning Bankka debet karta shartnomasini tuzish to'g'risidagi arizani taqdim etish bo'yicha harakatlari jismoniy shaxs tomonidan ushbu Ofertani to'liq va so'zsiz qabul qilish (aksept) hisoblanadi.
- 2.7. Dasturda ishtirok etishdan olingan daromadlar O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 369-moddasiga muvofiq soliqqa tortilmaydi.
- 2.8. Dastur doirasida Bank Mijozga Karta yoki Karta rekvizitlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan xaridlar va operatsiyalar uchun Bonuslarni (keyingi o'rinlarda "Bonuslar" yoki "Cashback" deb yuritiladi) hisoblab chiqadi, shuningdek, ushbu Dasturning 1-ilovasi - Bonuslar va mukofotlarni olish shartlariga muvofiq Mukofot taqdim etadi.

3. BONUS VA MUKOFOTLAR TAQDIM ETISH TARTIBI

- 3.1. Bonuslar Tarif va Dasturning 1-ilovasiga muvofiq Kartalar yoki Karta rekvizitlari yordamida amalga oshirilgan operatsiyalar uchun beriladi:
 - 3.1.1. sotib olish operatsiyalari uchun, 3.6-bandda ko'rsatilgan operatsiyalar bundan mustasno.
 - 3.1.2. hamkorlardan xarid qilinganlik uchun hamda ro'yxati Mobil ilovada va Bank veb-saytida e'lon qilingan toifalar bo'yicha xarid operatsiyalari uchun.
 - 3.1.3. Pul mablag'i bilan to'ldirish va yechib olish uchun;
- 3.2. 1 ta bonus = 1 o'zbek so'mi.
- 3.3. Bonus har bir alohida xarid, operatsiya yoki tranzaksiya uchun 1 martadan ko'p bo'lmagan miqdorda taqdim etiladi.
- 3.4. Bonuslar bir oy davomida to'planadi. Oy oxirida Bonuslar avtomat ravishda pul ekvivalentiga aylantiriladi va xaridlar, operatsiyalar va tranzaksiyalar amalga oshirilgan Kartaga (yoki Mijozning boshqa hisob raqamiga - Bank ixtiyoriga ko'ra) har oyda to'lanadi:
 - 3.4.1. Salom Card Humo kartalari uchun Bank tomonidan operatsiyalar qayta ishlangan oydan keyingi oy mobaynida, biroq ko'rsatilgan oyning oxirgi kalendar kunidan kechiktirmay (Bankning ixtiyoriga ko'ra).
 - 3.4.2. Salom Card Visa kartalari uchun Bank tomonidan operatsiyalar qayta ishlangandan so'ng, oy oxirida, biroq keyingi oyning oxirgi kalendar kunidan kechiktirmay (Bankning ixtiyoriga ko'ra).

- 3.5. Dasturda ishtirok etishda mijozlar tomonidan suiiste'molliklar aniqlangan taqdirda Bank barcha mijozlar uchun yoki Bankning ayrim mijozlari uchun individual ravishda hisoblangan Bonuslar summasini cheklash huquqiga ega (kuniga, haftasiga, oyiga yoki yiliga Bonuslarni to'plash limitini belgilash).
- 3.6. Karta Tariflarida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno, Bank quyidagi operatsiyalar uchun Bonuslarni taqdim etmaydi:
- 3.6.1. Mijozdan pul mablag'larini o'tkazish bo'yicha operatsiyalar (hisobvaraqlar, kartalar, Bankning boshqa mijozlari, boshqa banklarning mijozlari o'rtasida), Hamkorlardan pul o'tkazmalari bundan mustasno;
 - 3.6.2. kredit operatsiyalari;
 - 3.6.3. boshqa kredit tashkilotlaridagi operatsiyalar;
 - 3.6.4. depozit operatsiyalari;
 - 3.6.5. TBC UZ ilovasining "To'lovlar" bo'limidagi xizmatlar uchun to'lovlar bo'yicha operatsiyalar, Hamkorlar shartlariga muvofiq Hamkorlarga to'lovlar bundan mustasno.
 - 3.6.6. 3.6.6. Quyidagi MCC kodlari bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar: 4829, 5933, 6010, 6011, 6012, 6050, 6211, 6300, 6531, 6532, 6536, 6538, 9223, 9399, 6051, 6540, 5960, 9222, 7276, 9311, 7800, 7801, 7802, 7995, 9754, 6533, 6534, 6537, 6535.
- 3.7. Savdo va xizmat ko'rsatish tashkiloti va/yoki ekvayer bank tomonidan taqdim etilgan operatsiyalar turi to'g'risidagi noto'g'ri ma'lumotlar uchun Bank javobgar emas. Agar tranzaksiya ma'lumotlari xaridning Bonuslarga mos kelishini aniqlash uchun yetarli bo'lmasa, Bonuslar berilmasligi mumkin.
- 3.8. Bonuslar miqdori Kartaga kiritilgan xarid operatsiyasi qaytarilgan/bekor qilingan taqdirda, joriy va keyingi hisob-kitob davrlarida Bonuslar miqdori qaytarish/bekor qilish kunidagi amaldagi tranzaksiya summasiga kamayadi. Bekor qilingan tranzaksiya summasiga mutanosib ravishda Bonusni yoki kartadagi ekvivalent summani to'g'ridan-to'g'ri hisobdan chiqarish orqali Bank hisoblangan yoki to'langan Bonus miqdorini ushlab qolish huquqiga ega.
- 3.9. Agar ushbu Dasturni suiiste'mol qilish, ushbu Dastur qoidalarini buzish, noto'g'ri ortiqcha hisoblash holatlari aniqlansa, Bonuslarni bekor qilish Bank tomonidan Mijozni xabardor qilmasdan amalga oshiriladi.
- 3.10. 1-ilovaga muvofiq shartlar bajarilgan taqdirda mukofotlar beriladi.
- 3.11. Mukofotlar Shartlar bajarilgandan keyin bir kundan bir oygacha bo'lgan muddatda beriladi.
- 3.12. Hamkorlarning mahsulot va xizmatlaridan foydalanish shartlari Hamkorlarning tegishli veb-saytlari va axborot kanallarida ko'rsatilgan.

4. MIJOZLARNI OGOHLANTIRISH

- 4.1. Mijozni to'langan bonuslar haqidagi ma'lumot TBC UZ ilovasining tranzaksiyalar bo'limida aks ettiriladi.
- 4.2. Bonuslar va mukofotlar to'g'risidagi ma'lumotlar Hamkorning axborot kanallari orqali yoki TBC UZ mobil ilovasida rag'batlantiruvchi aksiyalar/dasturlar bo'yicha Hamkor ofertasida qo'shimcha ravishda k'rsatilishi mumkin.

5. MIJOZ HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 5.1. Mijoz quyidagi huquqlarga ega
 - 5.1.1. ushbu Qoidalarda belgilangan miqdorda va tartibda Dastur to'g'risida ma'lumot olish;
 - 5.1.2. ushbu Qoidalarga muvofiq Bonuslar va/yoki Mukofotlarni olish.
- 5.2. Mijoz ushbu Dasturga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalarni mustaqil ravishda kuzatish majburiyatini oladi. Ushbu Dasturning yangi tahriri kuchga kirgandan so'ng Mijozning Karta va/yoki ushbu Dasturdan foydalanish bo'yicha harakatlarni bajarishi Mijozning ushbu Dasturning yangi tahririga roziligini bildiradi.

6. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

- 6.1. Bank ushbu Qoidalarga muvofiq Dasturni amalga oshirishi, shuningdek, Bonuslar va Mukofotlarni o'tkazishi shart.
- 6.2. Bank shartlarni o'zgartirish va Sodiqlik dasturini bekor qilish huquqiga ega. Bank bu haqda ushbu Dasturning yangi tahriri kuchga kirgan kuni Dasturning yangi tahriri veb-saytga joylashtirish va/yoki SMS va/yoki ilovada Push-xabarnomalar yuborish orqali xabardor qiladi.
- 6.3. Agar Mijoz sodiqlik dasturi shartlariga rioya qilmasa va/yoki firibgarlik harakatlarni sodir etsa, va/yoki mijozga sodiqlik dasturi doirasida berilgan har qanday imtiyoz va/yoki imtiyozlarni suiiste'mol qilsa, va/yoki Bank va/yoki Hamkorga noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etsa va/yoki qonun hujjatlari bilan taqiqlangan faoliyat va/yoki operatsiyalarni amalga oshirsa, Bank har qanday Mijozni Bank va/yoki Hamkorning sodiqlik dasturi ishtirokchilari ro'yxatidan (Bank ishtirokidagi bonuslarni hisoblash qismida) ogohlantirishsiz yoki sabablarini tushuntirmasdan o'chirishga haqli.
- 6.4. Karta shartnomasi bekor qilingandanda Sodiqlik dasturi bo'yicha foydalanilmagan/olmagan barcha bonuslar kompensatsiya qilinmaydi va/yoki to'lanmaydi.
- 6.5. Bank ushbu dasturni bir tomonlama bekor qilish huquqiga ega, bu haqda Bank dastur bekor qilinishidan 10 kun oldin yangiliklarni e'lon qilish orqali veb-saytda xabardor qiladi. Barcha to'lanmagan Bonuslar va berilmagan imtiyozlar dastur bekor qilinishidan oldin to'lanadi va beriladi.

- 6.6. Mijozning operatsiyalari jinoyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatilganda Bank karta bo'yicha operatsiyalarni, Bonuslarni hisoblash va to'lashni va boshqa mukofotlarni/imtiyozlar berishni Bankning o'zi belgilagan muddatda bir tomonlama ravishda to'xtatib qo'yishga haqli.
- 6.7. Taklif shartlariga rozilik bildirgan holda, ushbu Oferta bo'yicha Mijoz oldidagi majburiyatlarni bajarish maqsadida Mijoz unga Bonuslar va/yoki Mukofotlarni taqdim etish hamda mijozni va uning faoliyatini identifikatsiyalashi uchun Hamkor uchun zarur bo'lgan shaxsiy ma'lumotlarni Hamkorlariga o'tkazishga rozilik beradi.

7. MAS'ULIYAT

- 7.1. Bankning Dastur ishtirokchisiga Bonus yoki Mukofotni o'tkazish bo'yicha majburiyati u Ishtirokchining kartasiga yoki boshqa hisob raqamiga o'tkazilgan yoki aloqa kanallari orqali Mukofotni olish usuli to'g'risida ma'lumot berilgan vaqtdan boshlab bajarilgan hisoblanadi.
- 7.2. Bank Dasturning amal qilish muddati davomida uchinchi shaxslar tomonidan tizimlardagi texnik muammolar, nosozliklar, xatolar bilan bog'liq holda ushbu Qoidalar bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun javobgar emas.
- 7.3. Agar 7.2-bandda ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelsa, Bank va Hamkorlar tizimidagi kelishmovchiliklar, xatolar, nosozliklarni bartaraf etish shartlari va sanalarini mustaqil ravishda belgilash huquqini Bank o'zida saqlab qoladi.
- 7.4. Ushbu Qoidalar bilan tartibga solinmagan barcha masalalar Bosh Shartlar hamda Bank va Bank mijozlari o'rtasida tuzilgan boshqa shartnomalar, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.
- 7.5. Hamkorlarning tovarlari/xizmatlarini sotib olish va Hamkorlik mahsulotlaridan foydalanish shartlari tegishli Hamkorlarning huquqiy hujjatlari (ofertalar, qoidalar, siyosatlar, ikki tomonlama shartnomalar va boshqalar) va qonunchilik bilan tartibga solinadi. Bankning mas'uliyati, agar u Dastur shartlarini bajarsa, Mukofotni mijozga o'tkazish bilan cheklanadi. Bank Hamkor tomonidan Mukofotlash shartlarining to'g'ri va sifatli bajarilishi uchun javobgar emas.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

- 8.1. Ushbu Qoidalardan kelib chiqadigan yoki ular bilan bog'liq barcha munozarali masalalar tinchlik, maslahat va muzokaralar yo'li bilan hal qilinadi. Da'vo qilish tartibi majburiydir.
- 8.2. Agar Tomonlar 8.1-bandga muvofiq nizolar va kelishmovchiliklarni hal qilmagan bo'lsa, nizo O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank ro'yxatdan o'tkazilgan joy bo'yicha hal qilinishi kerak.

1-ILOVA

Bonus va mukofotlarni olish shartlari

Hamkor nomi va/yoki toifalar	Bonus va/yoki mukofot turi	Bonus va/yoki mukofot olish shartlari	Aksiya holati / Aksiya amal qilish muddati	Kartaning to'lov tizimi
The Mart ("KITCHEN STORE" MChJ)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Bellissimo Pizza ("PIZZA CHAIN" MChJ)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Yandex.Eats ("YANDEX EATS" XK MChJ)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Toifa -"Jamoat transporti" ("ATTO" MCHJ "AVTOMATLASHTIRILGAN TRANSPORT TO'LOV TIZIMI OPERATORI", MyTaxi MChJ "Nyumaks Technology", Uklon XK MChJ "Uklon UB", Yandex.Go MChJ "YandexGo UB")	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartadan foydalanib, "Jamoat transporti" toifasida xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa

Payme avia («Payme» AJ)	Payme ilovasida aviachiptalar sotib olishda 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Payme ilovasida, "payme travel" bo'limida aviachiptalarni xarid qilish. Keshbek: har bir ishtirokchi uchun 1 000 000 so'mgacha cheklangan.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Payme tickets («Payme» AJ)	Payme ilovasida chipta sotib olishda 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Payme ilovasida payme tickets bo'limida chipta xarid qilish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Payme tickets («Payme» AJ)	Payme ilovasi orqali metro va avtobuslar to'lovi uchun 10% keshbek.	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda metro va avtobuslar uchun to'lovlarni Payme ilovasida amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo
Payme («Payme» AJ)	Bank hamkorlarida birinchi to'lov uchun 10 000 so'm miqdorida bir martalik bonus	Payme ilovasida Salom Card debet kartasidan foydalangan holda kamida 50 000 so'm miqdorida birinchi to'lovni amalga oshirish	17.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa

KFC (MCHJ “INTERNATIONAL FOODCHAIN”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Costa Coffee (MCHJ “BEST COFFEE CHAIN”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Korzinka Go (MCHJ “Lean Trade Solutions”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Bloom (MCHJ “Bloomshop”)	Bloom to‘lov uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Bloom to‘lovni amalga oshiring.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Wolt (MCHJ “WOLT TEXNOLOGIYALARI”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish. Muddati: 01.07.2025-yildan.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa

Yaponamama	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
ChayKof (MCHJ "SWEET COFFEE", MCHJ "RUSCOFFEE", MCHJ "COFFEE AND TEA", MCHJ "LA MARZOCCO")	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
MOLOKO (MCHJ "White Drink Company)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Baraka Market (MCHJ "URBAN RETAIL")	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa
Olma (MCHJ "XALQ RETAIL")	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo, Visa

TezzGo (MCHJ “TRADE AND SECURITY GROUPS”)	TezzGo ilovasi orqali to'lov uchun 10% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, TezzGo ilovasida to'lovni amalga oshirish.	01.02.2026-28.02.2026	Humo
Amazon	Amazon'da xaridlar uchun 10% cashback	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Amazon sayti yoki ilovasida to'lovni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Visa
Alibaba	Alibaba'da xaridlar uchun 10% cashback	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Alibaba sayti yoki ilovasida to'lovni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Visa
eBay	eBay'da xaridlar uchun 10% cashback	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda eBay sayti yoki ilovasida to'lovni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Visa
AliExpress	AliExpress'da xaridlar uchun 10% cashback	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda AliExpress sayti yoki ilovasida to'lovni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Visa

TaoBao	Taobao'da xaridlar uchun 10% cashback	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda TaoBao sayti yoki ilovasida to'lovni amalga oshirish	01.02.2026-28.02.2026	Visa
Setanta Sports	Setanta Sports'ga bepul obuna	Setanta Sports obunasiga ariza berish uchun TBC Salom Telegram-boti https://t.me/tbc_salom_bot) orqali murojaat qiling. Obuna barcha Salom kartasi foydalanuvchilari uchun boshlab mavjud va Salom kartasi faol bo'lganda har	Hozir amal qiladi	Humo
"Odat" omonati	Barcha to'lovlar uchun 5% keshbek (oflayn to'lovlar)	alom Card debet kartasi yordamida to'lovni (oflayn to'lovni) amalga oshiring. Shartlar Aksiya qoidalarida havola orqali keltirilgan: havola	Hozir amal qiladi 02.10.2025 - 30.09.2026	Humo, Visa
Toifa - "UzPost bo'limlari" ("O'zbekiston pochta AJ)	Salom karta raqamidan foydalangan holda UzPost bo'limlarida naqd pul kiritish uchun bonus	Salom Card debet karta raqamidan foydalanib, UzPost bo'limlarida naqd pul kiritish. Hisob to'ldirilgan summadan 1% bonus hisoblanadi. Bir martalik to'ldirish limiti 11 250 000 so'm. Oyilik to'ldirish limiti 187 500 000 so'm.	Hozir amal qiladi	Humo

Toifa - “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bankomatlar”	Salom karta raqamidan foydalangan holda bankomatlar orqali naqd pul kiritish uchun bonus	Salom Card debet karta raqamidan foydalanib, bankomatlarda naqd pul kiritish. Hisob to‘ldirilgan summadan 2% bonus hisoblanadi.	Hozir amal qiladi	Humo, Visa
Toifa - “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi bankomatlar”	O‘zbekiston hududida bankomatlardan naqd pul yechib olish uchun bonus	Salom Card debet karta yordamida bankomatdan naqd pul yechib olish. Bonus yechib olingan naqd pul miqdori va bankomatda olinadigan komissiya miqdoridan kelib chiqib hisoblanadi.	Hozir amal qiladi	Humo, Visa
	Karta balansi uchun bonus	Mukofot oyning har bir operatsion kuni uchun kun boshida Salom Card karta hisobvarag‘i bo‘yicha kamida 100 000 so‘m qoldig‘i uchun hisoblanadi. Dam olish va bayram kunlari uchun karta hisobvarag‘idagi qoldiq oldingi ish kuni uchun kun oxiridagi qoldiq hisoblanadi.	Hozir amal qiladi	Humo

	Karta balansi uchun bonus	Mukofot oyning har bir kuni uchun kun boshida Salom Card karta hisobvarag'ida 100 000 so'mdan kam bo'lmagan qoldiq summada hisoblanadi.	Hozir amal qiladi	Visa
	Keshbek	Sodiqlik dasturi bo'yicha maxsus aksiyalar doirasida karta orqali xaridlar uchun bonus operatsion kun boshida o'rtacha oylik qoldiq 100 000 so'mdan kam bo'lmaganda to'lanadi. O'rtacha oylik balans kalendar oyi davomida har bir amaliyot kun boshidagi kartadagi hisob qoldig'i qiymatlarining arifmetik o'rtachasi sifatida hisoblanadi. Dam olish va bayram kunlari uchun karta hisobvarag'idagi qoldiq oldingi ish kuni uchun kun oxiridagi qoldiq hisoblanadi.	Hozir amal qiladi	Humo
	Keshbek	Bonuslar: - Karta orqali amalga oshirilgan barcha xaridlar uchun "Sodiqlik dasturi" doirasidagi maxsus aksiyalar davomida Visa kartasi orqali amalga oshirilgan xaridlar uchun. Oyiga 500 000 so'mdan oshmagan miqdorda to'lanadi.	Hozir amal qiladi	Visa

Payme tickets («Payme» AJ)	Payme ilovasida chorshanba kunlari kino chiptalarini sotib olishda 100% keshbek olish imkoniyati	Payme Tickets ilovasida chorshanba kunlari Salom Card debet kartasi orqali kino seansiga chipta sotib olish. Amal qilish muddati: 2025-yil 17-sentyabrdan 2025-yil 31-dekabrgacha. Keshbek: Xarid summasining 100 foizi, har bir ishtirokchi uchun oyiga 1 000 000 soʻmgacha cheklangan. Xaridlar uchun keshbek keyingi taqvim oyida (2025-yil 1-oktyabrdan boshlab) toʻlanadi.	Yakunlandi 17.09.2025 - 31.12.2025	Humo
Toifa - "To'lov terminallari" (Paynet "Paynet" AJ)	Salom karta raqamidan foydalangan holda toʻlov terminallari orqali naqd pul kiritish uchun bonus	Salom Card debet karta raqamidan foydalanib, toʻlov terminalida naqd pul kiritish. Hisob toʻldirilgan summadan 3% bonus hisoblanadi.	Yakunlandi	Humo, Visa
iSpace (YATT MCHJ "ASBC ENTITY"	iSpace doʻkonida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan iSpace doʻkonida toʻlov amalga oshiring: 1. iPhone 16 Pro 128GB 2. iPhone 16 Pro Max 256GB Xaridlar uchun keshbek 01.04.2025 dan boshlab toʻlanadi.	Yakunlandi 28.02.2025 - 25.03.2025	Humo

Texnomart (MCHJ "TEXNOMART")	Texnomart do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Texnomart do'konida to'lov amalga oshiring: 1. iPhone 16 Pro 128GB 2. iPhone 16 Pro Max 256GB Xaridlar uchun keshbek 01.04.2025 dan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 28.02.2025 - 25.03.2025	Humo
Mediapark (MCHJ "AZ LOGISTREK")	Mediapark do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Mediapark do'konida to'lov amalga oshiring: 1. iPhone 16 Pro 128GB 2. iPhone 16 Pro Max 256GB Xaridlar uchun keshbek 01.04.2025 dan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 28.02.2025 - 25.03.2025	Humo
Joybox(OOO «JOYBOX BUSINESS GROUP»)	Joybox do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Joybox do'konida to'lov amalga oshiring: 1. iPhone 16 Pro 128GB 2. iPhone 16 Pro Max 256GB Xaridlar uchun keshbek 01.04.2025 dan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 28.02.2025 - 25.03.2025	Humo

iSpace (YATT MCHJ "ASBC ENTITY")	iSpace do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan iSpace do'konida to'lov amalga oshiring: 1. Iphone 16 Pro 128G/256G 2. Iphone 16 Pro Max 256GB 3. Iphone 16 128GB 4. Iphone 15 128GB 5. Iphone 14 128GB 6. Iphone 13 128GB Ushbu aksiya uchun o'rtacha oylik qoldiq sharti qo'llanilmaydi.	Yakunlandi 25.08.2025 - 21.09.2025	Humo
Texnomart (MCHJ "TEXNOMART")	Texnomart do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Texnomart do'konida to'lov amalga oshiring: 1. Iphone 16 Pro 128G/256G 2. Iphone 16 Pro Max 256GB 3. Iphone 16 128GB 4. Iphone 15 128GB 5. Iphone 14 128GB 6. Iphone 13 128GB Ushbu aksiya uchun o'rtacha oylik qoldiq sharti qo'llanilmaydi.	Yakunlandi 25.08.2025 - 21.09.2025	Humo
Joybox(OOO «JOYBOX BUSINESS GROUP»)	Joybox do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Joybox do'konida to'lov amalga oshiring: 1. Iphone 16 Pro128G/256G 2. Iphone 16 Pro Max 256GB 3. Iphone 16 128GB 4. Iphone 15 128GB 5. Iphone 14 128GB 6. Iphone 13 128GB Ushbu aksiya uchun o'rtacha oylik qoldiq sharti qo'llanilmaydi.	Yakunlandi 25.08.2025 - 21.09.2025	Humo

Mediapark (MCHJ "AZ LOGISTREK")	Mediapark do'konida iPhone xaridi uchun 10% keshbek	Quyidagi iPhone modellari uchun Salom Card debet kartasi bilan Mediapark do'konida to'lov amalga oshiring: 7. Iphone 16 Pro128G/256G 8. Iphone 16 Pro Max 256GB 9. Iphone 16 128GB 10. Iphone 15 128GB 11. Iphone 14 128GB 12. Iphone 13 128GB Ushbu aksiya uchun o'rtacha oylik qoldiq sharti qo'llanilmaydi.	Yakunlandi 25.08.2025 - 21.09.2025	Humo
Benedict ("Musata team" MCHJ)	Mirobod ko'chasi, 60 filialdagi Benediktda to'lovi uchun 20% keshbek	Mirobod ko'chasi, 60 filialdagi Benediktga Salom Card debet kartasidan foydalanib to'lovni amalga oshiringXaridlar uchun keshbek 2025-yil 1-martdan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 13.02.2025 - 16.02.2025	Humo
Zira Cafe (Zira Chef MCHJ)	Zira Cafe'da to'lov uchun 20% keshbek	Zira Cafe'da Salom Card debet kartasidan foydalanib to'lovni amalga oshiring. Xaridlar uchun keshbek 2025-yil 1-martdan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 13.02.2025 - 16.02.2025; 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo

La Cantine («La Cantine» MCHJ)	La Cantine'da to'lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, La Cantine'da to'lovni amalga oshiring. Xaridlar uchun keshbek 2025-yil 1-martdan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 13.02.2025 - 16.02.2025; 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo
Kamila's Flowers (Kamila's flowers MCHJ)	Kamila's Flowers'da to'lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Kamila's Flowers'da to'lovni amalga oshiring. Xaridlar uchun keshbek 2025-yil 1-martdan boshlab to'lanadi.	Yakunlandi 13.02.2025 - 16.02.2025; 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo
Cucucina (MCHJ "Pepperoni")	Cucucina to'lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Cucucina to'lovni amalga oshiring. .	Yakunlandi 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo

TKH (MCHJ “SAPERAVI”)	TKH to‘lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, TKH to‘lovni amalga oshiring.	Yakunlandi 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo
Nika (MCHJ “Breadandwheat”)	Nika to‘lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Nika to‘lovni amalga oshiring.	Yakunlandi 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo
Bloom (MCHJ “Bloomshop”)	Bloom to‘lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Bloom to‘lovni amalga oshiring.	Yakunlandi 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo
Pandora (MCHJ “Region Proekt”)	Pandora to‘lov uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalanib, Pandora to‘lovni amalga oshiring	Yakunlandi 7.03.2025 - 07.04.2025	Humo

Wolt (MCHJ “WOLT TEKNOLOGIYALARI”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 20% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	Yakunlandi 01.05.2025 - 30.06.2025	Humo
M Cosmetic (MCHJ “SFERA VOSTOK”)	Bank hamkorlaridan xaridlar uchun 5% keshbek	Salom Card debet kartasidan foydalangan holda Bank hamkorlaridan xaridlarni amalga oshirish.	Yakunlandi 01.05.2025 - 31.07.2025	Humo

